

ERTANGI KUN ABITURIYENTLARI, SIZLAR UCHUN DAVRGA MOS DARSLIKLAR YARATILADI

2017-yil 3-iyunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi. Unga asosan yangi o'quv dasturlari hayotga tatbiq etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur yangi o'quv dasturlari anchagina takomillashtirilgan va yangiliklarga boy. Darsliklar aynan o'quv dasturlari talablariga tayangan holda yaratilishini inobatga olsak, yangi nashr etiladigan darsliklarni ancha o'zgarishlar kutayotganligi sir emas. Shundan kelib chiqqan holda joriy 2017-yilda 6- va 7-sinflar, 2018-yilda 8- va 9-sinflar, 2019-yilda esa 5-sinflar uchun yangi darsliklar chop etiladi. Xo'sh, ushbu darsliklarda yangi o'quv dasturiga muvofiq qanday o'zgarishlar yuz beradi? Keling, ushbu o'zgarishlarni "Adabiyot" misolida tahlil qilib ko'rsak. Bu ertangi kun abituriyentlari uchun qiziq bo'lishi tabiiy.

Yangilangan o'quv dasturida eng ko'p o'zgarishga uchragan dastur 5-sinf "Adabiyot" dasturidir. Jumladan, o'quv dasturidan Jonatan Svift va uning "Gulliverning sayohatlari" romanidan keltirilgan parcha olib tashlandi. O'rniga Shukrullo va uning "Umr haqida ertak" asari kiritildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Gulliverning sayohatlari" asaridan olingan parcha nafaqat o'quvchilarni, balki abituriyentlarni ham o'zida ko'plab yodlash qiyin bo'lgan ma'lumotlar mavjudligi bilan anchagina qiynardi. Yangi o'zgarishlardan yana biri dasturga aka-uka Grimmlar va ularning "Botir tikuvchi" nomli ertagi kiritilib, G'afur G'ulom va uning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi olib tashlandi. Usmon Nosir, Mirtemir, Asqad Muxtor, Antuan de Sent-Ekzyuperi, shuningdek, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylar hamda ularning ijod namunalari 5-sinf o'quv dasturidan chiqarildi. Ushbu adiblarning o'rniga dasturga Hermen Hesse va uning "Oy shu'lasida" hikoyasi, Daniel Defo va uning "Robinson Kruzo" asari, Anvar Obidjonning ijod mahsullari kiritildi. Dasturdagi eng yirik o'zgarishlar shulardan iborat.

6-sinf "Adabiyot" dasturidagi ayrim qisqartirish va to'ldirishlarni inobatga olmaganda, deyarli o'zgarish yo'q, jumladan, Hamid Olimjon va uning "O'zbekiston" she'ri o'quv dasturidan chiqarilib, Zulfiya she'rlarining salmog'i oshirildi. 7-sinf "Adabiyot"ida ham shu holat: Turdi Farog'iy va uning she'rlari chiqarilib, hikoya haqida nazariy ma'lumot kiritildi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, mazkur ikki darslik joriy yilda nashr etiladi. Sentabr oyida esa ularning yangilangan o'quv dasturiga qanchalik muvofiqligini bilib olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

8-sinf "Adabiyot" fani o'quv dasturi ham o'zgarishsiz qolmadi. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" dostoni dasturdan olib tashlandi. Abdurauf Fitrat va uning she'rlari ham o'zgarishlar shamoliga dosh berolmay, dastur sahifalarini tark etdi. G'ofur G'ulomning ijod namunalari orasidan "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi..." she'ri ham o'rin oldi. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasi o'rniga "Jaloliddin Manguberdi" dramasi kiritildi. Dasturdan Hamza Hakimzodaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi, Shukur Xolmirzayevning bir nechta hikoyalari, shuningdek, Shavkat Rahmonning she'rlari ham joy oldi. Robindranath Thokurning "Nur va soylari"ni uning "Suba" nomli hikoyasi surib chiqardi.

9-sinf "Adabiyot" fani o'quv dasturida ham o'zgarishlar anchagina. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari dasturdan olib tashlandi. Boborahim Mashrab va uning sh'rlari dasturni tark etdi. Abdulla Qodiriy va uning "O'tkan kunlar" romanidan keltirilgan parcha dasturdan chiqarildi. Ularning o'rniga Izzat Sulton va uning "Imon" dramasi, Rauf Parfi she'riyati singari mavzular kiritildi. Cho'lpon, uning she'riyati, shuningdek, "Kecha va kunduz" romanidan keltirilgan parcha o'rnini 5-sinf dasturidan chiqarilib, mazkur sinf dasturiga kiritilgan Imom Buxoriy va uning "Al jome' as-sahih" asaridan olingan hadislar egalladi. Dasturda Oybekning faqat lirikasi qoldirilib, "Qutlug' qon" asaridan olingan parcha olib tashlandi. Vilyam Shekspirida ham o'zgarish bo'ldi: uning "Otello"sini "Gamlet" egalladi. Haynrix Haynening o'rniga esa O'las Sulaymonov o'quv dasturiga kiritildi.

Albatta, ushbu dasturdagi o'zgarishlar yangi darsliklarda o'z aksini topib boradi. Demak, nafaqat ertangi kun o'quvchilarini, balki ertangi kun abituriyentlarini ham hali bundanda ezgu o'zgarishlar kutmoqda. Zero, zamonning o'zi – o'zgarishlar va yangilanishlarni talab etmoqda!

Alisher EGAMBERDIYEV